

“Madad” – muassasa shaklidagi NNT:
bepul, beminnat va zamonaviy xizmat

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi 741-qaroriga asosan mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida “Madad” – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti va uning joylardagi huquqiy maslahat byurolari tashkil etildi.

Muassasani tashkil etishdan asosiy maqsad – fuqarolarga huquqiy masalalar bo‘yicha birlamchi bepul yuridik yordam ko‘rsatish yo‘li bilan aholining huquqiy bilim va savodxonligini oshirishga ko‘maklashishdan iborat.

Bugungi kunda “Madad” NNT tomonidan fuqarolarga huquqiy masalalar bo‘yicha bepul yuridik yordam ko‘rsatilib, ularning huquqiy bilim va savodxonligini oshirishga ko‘maklashib kelinmoqda.

Muassasa tomonidan aholiga, ayniqsa, joylarda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan (kam ta’minlangan oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar va boshqa) fuqarolarga bepul yuridik yordam ko‘rsatish maqsadida respublika bo‘yicha 60 ta tuman (shahar)da huquqiy maslahat byurolari tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Jumladan, muassasa tashkil etilganidan buyon o‘tgan davr mobaynida hududiy byurolarga 181 405 nafar fuqaro bevosita murojaat qilib, o‘zlarini qiziqtirgan huquqiy masalalar bo‘yicha bepul yuridik yordam olishgan. Ushbu murojaatlarning eng ko‘p qismi pensiya va ijtimoiy himoya masalalari (26033), sud-huquq masalalari (25311) va oilaviy munosabatlarga (20445) oid hisoblanadi.

Shu bilan birga, hududiy byurolarga bevosita murojaat qilgan 15000 dan ortiq fuqaroga tegishli huquqiy hujjatlar namunalarini taqdim qilish yoki

MADAD
MUASSASA SHAKLIDAGI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI

bunday hujjatlar loyihalarini tuzishda yordam ko‘rsatilgan.

“Madad” NNTning rasmiy sayti hisoblangan “Advice.uz” huquqiy axborot portali 2019-yilda Adliya vazirligi tomonidan Buyuk Britaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda mamlakatimiz aholisini huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash va onlayn rejimda bepul huquqiy maslahatlar berish tizimini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu portalni ishlab chiqishda Buyuk Britaniyaning “Citizens Advice” deb nomlangan mustaqil xayriya tashkilotining ijobiy tajribasidan foydalanilgan. Hozir portal muassasa tomonidan muntazam ravishda yangilab borilmoqda.

Xususan, 2021-yilda AQSH Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID)ning O‘zbekistonda Huquqiy islohotlar dasturi bilan hamkorlikda portal interaktiv jihatdan yangilanib, undan foydalanuvchilar uchun bir qator qulaylik va imkoniyatlar yaratilgan.

Portalda fuqarolarimiz kundalik hayotida duch kelishi mumkin bo‘lgan turli sohalar bo‘yicha 20 dan ortiq bo‘lim mavjud bo‘lib, undan foydalanuvchilar o‘zlari uchun zarur ma’lumotga ega bo‘lishlari yoki o‘zlarini qiziqtirgan savollarga tezda javob topishlari mumkin. Bundan tashqari, portalda tegishli sohalarga oid normativ-huquqiy hujjatlar, foydali havolalar, hayotiy misollar, savol-javoblar kabi zarur axborot va ma’lumotlar (kontentlar) joylashtirilgan.

Portalning qulayliklaridan yana biri, agar undan foydalanuvchilarda huquqiy maslahatga zarurat yoki boshqa qo‘shimcha savollar yuzaga keladigan bo‘lsa, shu zahoti savollarni onlayn maslahatchiga yo‘llashlari va real vaqt rejimida javob olishlari mumkin.

Bugungi kunda “Advice.uz” huquqiy axborot portali orqali fuqarolardan huquqiy masalalar bo‘yicha jami 140 mingdan ortiq onlayn murojaat kelib tushgan va ularga real vaqt rejimida bepul huquqiy maslahatlar va tushuntirishlar berilgan. Ushbu onlayn murojaatlarning eng ko‘p qismi mehnat munosabatlari, pensiya, ijtimoiy himoya va uy-joy masalalariga taalluqli.

Hozir portal xizmatlaridan bir kunda o‘rtacha 5-6 ming nafar kishi foydalanmoqda.

advice.uz
Huquqiy axborot portali

Muassasa tomonidan 2020-yilda “COVID-19” virusi tarqalishi va karantin cheklovlari joriy qilinishi davrida:

- 4 mingdan ortiq fuqaroning aynan pandemiya va karantin cheklovlari bilan bog‘liq murojaatlari yuzasidan ularga masofaviy tarzda huquqiy yordam ko‘rsatilgan;
- Adliya vazirligi bilan hamkorlikda “Biz birgamiz” ijtimoiy loyihasi doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan;
- “Raqamli iqtisodiyot, inson huquqlari sohasida ta’lim va tadqiqotlar” mavzusidagi respublika tanlovida ishtirok etib, “COVID-19 inqirozidan zarar ko‘rganlarga yordam berishda nodavlat notijorat tashkilotlarining eng faoli” yo‘nalishi bo‘yicha g‘olib deb topilgan.

Muassasa va hududiy byurolar xodimlari joylardagi xalq qabulxonalari, hududiy adliya organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan 2 mingdan ortiq ommaviy va sayyor qabulda ishtirok etgan.

Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida muassasa bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston milliy axborot agentligi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Notarial va Advokatlar palatasi, “Darakchi” gazetasi tahririyati, shuningdek, Buyuk Britaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi, AQSH Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID)ning O‘zbekistonda Huquqiy islohotlar dasturi, Buyuk Britaniya hukumatining “Government Partnerships International” agentligi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar imzolangan.

Muassasa tomonidan amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan 20 dan ortiq taklifning 10 dan ortig‘i qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan.

To‘lqin TURSUNOV,
“Madad” – muassasa shaklidagi
nodavlat notijorat tashkiloti ijrochi direktori